

**BIOETIKA VA DEONTOLOGIYA ASOSLARINI XIRURGIK BEMORLARNI QABUL QILISHDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*Menejment : Sog‘liqni saqlash menejmenti yo‘nalishi*

**3-bosqich talabasi Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o‘g‘li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*Menejment : Sog‘liqni saqlash menejmenti yo‘nalishi*

**2-bosqich talabasi Ibragimov Dilshodbek Anvar o‘g‘li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*Menejment : Sog‘liqni saqlash menejmenti yo‘nalishi*

**3-bosqich talabasi Mirzaxmedov Hasanbek Baxtiyorjon o‘g‘li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*1-son davolash fakulteti 3-bosqich*

**talabasi Abdurasulova Nilufar Xusniddin qizi**

*Annotatsiya Tibbiy etika - tibbiyot xodimlarining axloqiy me‘yorlari to‘plami hisoblanadi. Tibbiy xodimning axloqiy mas‘uliyati tibbiy etikaning barcha printsiplariga rioya qilishni nazarda tutadi. Bemorlarga tashxis qo‘yish, davolash, davolanish holati, o‘rta va kichik tibbiyot xodimlarining noto‘g‘ri xatti-harakatlari bemorlarning jismoniy va ma‘naviy azoblanishiga olib kelishi mumkin. Tibbiyot xodimining tibbiy sirlarni oshkor qilishi, tibbiy yordamdan voz kechishi, shaxsiy hayoti buzilganligini oshkor qilishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas. Bemor bilan suhbatni qat‘iy qoidalari yo‘q, ammo butun dunyo shifokorlari umumiy deontologiya tibbiyot xodimlarining kasbiy etikasiga amal qilishadi. Bemorni qalbini, ichki hissiyotlarini tinchlantirish – deontologiyaning va uning effektivligini ko‘rsatuvchi asosiy omillaridir.*

**Kalit so‘zlar:** *Tibbiy etika, umumiy deontologiya, ahloqiy harakatlar, yatrogeniya, manipulyatsiya, tibbiyot xodimining burchi, shifokor va bemor siri, kasb majburiyatlari.*

**Аннотация** *Медицинская этика – моральные нормы медицинского персонала это набор. Этическая ответственность медицинского работника предполагает соблюдение всех принципов медицинской этики. Диагностика больных, лечение, условия лечения, неправильное поведение среднего и младшего медицинского персонала могут стать причиной физических и психических страданий больных. Медицинскому работнику не допускается разглашение врачебной тайны, отказ от медицинской помощи, раскрытие факта посягательства на его личную жизнь. Строгих правил опроса пациента нет, но врачи во всем мире следуют общей деонтологии профессиональной этики медицинских работников. Успокоение сердца и внутренних чувств пациента – главный фактор деонтологии и ее эффективности.*

**Ключевые слова:** Медицинская этика, общая деонтология, моральные действия, ятрогения, манипуляция, долг медицинского работника, конфиденциальность врача и пациента, профессиональные обязанности.

**Annotation** *Medical ethics - moral standards of medical personnel is a set. The ethical responsibility of a medical worker implies compliance with all the principles of medical ethics. Diagnosing patients, treatment, condition of treatment, wrong behavior of middle and junior medical staff can cause physical and mental suffering of patients. It is not allowed for a medical worker to disclose medical secrets, to refuse medical assistance, to reveal that his personal life has been violated. There are no strict rules for interviewing a patient, but doctors around the world follow the general deontology of professional ethics of medical workers. Calming the patient's heart and inner feelings are the main factors of deontology and its effectiveness.*

**Key words:** *Medical ethics, general deontology, moral actions, iatrogenics, manipulation, the duty of a medical worker, doctor-patient confidentiality, professional obligations.*

#### Kirish

Tibbiy etika - tibbiyot xodimlarining axloqiy me'yorlari to'plami hisoblanadi. Jamiyatda odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini normalar, qoidalar va urf-odatlar boshqaradi. Ularga asosan tibbiyot xodimlarining etika va axloqiy tamoyillari belgilanadi: burch, sha'n, qadr-qimmat, vijdon, baxt-saodat kabilardir. Tibbiyot xodimining burchi - bemorga yuqori professional darajada yordam berish, hech qachon va hech qanday bahona sababli bemorning jismoniy va ruhiy salomatligiga qarshi qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak. Kasalxonada va ambulatoriya balki bemorning yaqinlari tomonidan ham amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlarining bemor bola va yaqin qarindoshlari bilan aloqalari davomiyligi boshqacha bo'lishi mumkin. Bunday aloqalar ba'zan kasalxonaga yotqizilganidan keyin ko'p hafta yoki oylar (hatto yillar) davom etadi. Bu holatlar tibbiyot xodimlari o'rtasidagi munosabatlarda, shuningdek sog'liqni saqlash xodimlari va kasal bolalar, tibbiyot xodimlari va bolalarning oila a'zolari o'rtasida axloqiy va deontologik tamoyillariga amal qilishga sabab bo'ladi. Tibbiyot etikasiga shunday muammolarni hal qilish kiradiki, unga asosan nafaqat yashayotgan insonlar hayoti va salomatligi, balki bo'lg'usi avlod hayoti va salomatligini yaxshilash kiradi. Hamshira burchi bu – avvalo shifokor ko'rsatmasini aniq bajarishdir (holat, parhez, inyeksiya, tana haroratini o'lchash, dori tarqatish, va hokazolar). Agarda hamshira vrach ko'rsatmalarini rasmiylik uchun emas, balki chin ko'ngildan bajarganda bemorlarning tez tuzalishi, dardini yengillashishi yanada samarali bo'ladi. Bularning barchasi intizomni, professional ko'nikmalar va bilimlarni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bunday holatda hamshiraning shaxsiyati muhim ahamiyatga ega. Agarda tibbiyot xodimi malakali bo'lsa, o'z vazifalarini professional bajarsayu, bemorlar bilan aloqa o'rnata olmasa,

uning xatti-harakatlari davolashda kutilgan natijani bermaydi. Uning e'tiborli, mehribon bo'lishi, samimiy muomalasi, doimo tabassum ulashishi burchi bo'lib hisoblanadi va bolalarning yangi muhitga moslashishi uchun yordam bo'ladi. Tibbiy deontologiya (yunoncha "deontos" – kerak bo'lgan, majbur) - tibbiyot xodimlarining o'z professional majburiyatlarini bajarishdagi ahloqiy normalari va tamoyillari to'plamidir. U tibbiy etika bo'limiga kiritilgandir, chunki u ko'plab masalalarni qamrab oladi. Deontologiya tibbiyot xodimining ahloqiy harakatlarini o'rganadi, davolash samaradorligini maksimal oshirishga qaratilgan harakatlarni o'rganadi, tibbiy faoliyat davomida salbiy omillar va tibbiy xizmatning to'laqonli bo'lmasligini oldini oladi. Xalqaro vrachlik deontologiya kodeksiga ko'ra shifokorga ikkita strategik talablar qo'yiladi: 1) bilim; 2) insonlarga ijobiy munosabat.

**Tibbiy xodimlarning o'zaro munosabatlari.** Kasalxonada tibbiyot xodimlari o'rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Tibbiy xodimlarning ahloqiy qoidalarini buzish, ularning kasbiy majburiyatlarini bajarmasligi davolash jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi. Tibbiy xodimlar bemor bolalar oldida professional mavzular bo'yicha suhbatlar o'tkazmasligi kerak. Ba'zi bemorlar ta'sirchan bo'lishini hisobga olish kerak, ular osonlik bilan ta'sirga beriladi va ularda tez yatrogeniya, ya'ni psixopatiyaga bog'liq kasalliklar rivojlanishi mumkin. Tibbiy xodimlarning ota-onalari va bemor bolaning qarindoshlari bilan o'zaro munosabatlari. Ota-onalar, ayniqsa onalar aksariyat hollarda kasallikni qiyin qabul qilishadi. Og'ir kasallangan bemorning onasi psixologik jihatdan travma oladi va noadekvat munosabat, ya'ni reaksiya bildirishi mumkin. Shu sababli tibbiy xodimlar istisno qilmasdan onaga alohida e'tibor berishlari zarur. Kasalxonada og'ir kasal bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qiluvchi onalarga alohida e'tibor berilishi kerak. Ayolni so'z bilan ishontirish, nafaqat dam olish, balki ovqatlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, bolaning to'g'ri davolanishiga ishonch hosil qilishiga yordam berish muhimdir. Ona shifokor tomonidan tayinlangan manipulyatsiya, muolajalarning ahamiyati va zarurligini tushunishi kerak. Har qanday yoshdagi bolalarga nisbatan munosabat teng va yaxshi bo'lishi kerak. Bu qoida kasalxonada qolishning birinchi kunlaridan kuzatilishi kerak. Bolalar palataga yotishni yomon qabul qilishadi; ota-onalar ketgandan so'ng, tibbiy xodimlarning bolani tinchlantirishi qiyin bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar tibbiy xodimlarga yaxshi va ishonch bilan munosabatda bo'lib, ularning og'ir mehnatlari uchun minnatdor bo'lishadi. Shu bilan birga, qo'pollik va shafqatsiz xatti-harakatlar bilan shifoxona xodimlarining e'tiborini bolalarga qaratishga harakat qiluvchi ota-onalar ham mavjud. Bunday ota-onalarga tibbiy xodimlar ichki va tashqi xotirjamlik bilan javob berishi yomon xulqli odamlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tashrif va narsalarni qabul qilish vaqtida hamshiraning bemor ota-onasi va qarindoshlari bilan suhbatlashishi kata ahamiyatga ega. Ish ko'pligiga qaramasdan shifokor barcha savollarga xotirjamlik bilan javob berishga vaqt topishi kerak. Ota-onalar bolaning kasalligini bilishda, davolashning to'g'riligini va

jarayonni aniqlab olishda tibbiyot hamshirasidan bilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday hollarda qarindoshlari bilan suhbatlashish hamshiraning vakolatiga kirmaydi. Uning kasallikning belgilari va natijasi haqida gapirishga haqqi yo'q.

Hamshiralalar xushmuomalalik bilan kechirim so'rashi, qarindoshlarni shifokor yoki bo'lim boshlig'iga murojaat qilishlari uchun yuborishlari kerak. Tibbiy xodimlar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarda muomala shakli muhim ahamiyatga ega. Tibbiy deontologiyaning axloqiy tamoyillari va deontologiya me'yorlariga rioya qilish majburiy bo'lib, tibbiy xodim ish joyiga va lavozimiga bog'liq emas. Tibbiyot xodimlarining deontologiya me'yorlariga jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabatda bo'lish, kollegiallik tuyg'usi, intizomni saqlash, halol va vijdonan munosabatda ishlash kiradi. O'zaro ishonchli bo'lish uchun ehtiyotkorlik va shijoatni ko'rsatish kerak. Tibbiy xodimi faoliyatida bemorlar va hamkasblari orasida o'zini tuta bilishi, sharoitga qarab suhbatlashishi va muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Акопов В. И. Этические, правовые и медицинские проблемы. - Медицинское право и этика. -2012. -№1. -С.47-55.
2. Глухов А.А., Андреев А.А., Болотских В.И., Боев С.Н. Основы ухода за хирургическими больными. – М., ГЭОТАР-МЕД, 2008. – 288 с.
3. Гостищев В.Г. Общая хирургия. Учебник. – М. ГЭОТАР-МЕД, 2002. 608 с.
4. Детская хирургия: национальное руководство. Под. ред. Ю.Ф. Исакова, А.Ф. Дронова. М. ГЭОТАР – Медиа, 2009.
5. Долецкий С. Я. Ятрогения в хирургии. Ятрогенные болезни и повреждения: Сб. научных работ. – Махачкала. -1991. -С.14.
6. Золикина Л.С. Беморларни умумий парвариши, 1995.
- 7.Кожемякин Л.А., Бондаренко В.Г. Нестабильность генома и СПИД. Биохимия, 1992, т. 57, в. 9, с. 1417-1426.
- 8.Кузнецов В.П. Система интерферона при ВИЧ-инфекции. Вопросы вирусологии. 1991, т. 36, №2, с. 92-96.
- 9.Мазурин А.В., Запруднов А.М., Григорьев К.И. Общий уход за детьми: Учебное пособие. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.:Медицина, 1998.
10. Петрова Н. Н. Психология для медицинских специальностей. Учебник / Н. Н. Петрова. – М.: Академия, 2008.
11. Русаков В. И. К проблеме ятрогении. Хирургия. -1998.

12. Стручков В.И., Стручков Ю.В. Общая хирургия. Учебник. –М. Медицина. 1988.
13. Турсунов Б.С. Хирургик беморлар парвариши, Ибн Сино номидаги матбуот бирлашмаси, 1995.
14. Яромич И.В. Сестринское дело и манипуляционная техника. Учебник. Минск. Выш.школа. 2011.
15. Зокирходжаев Ш.Е. Шифокор ва бемор фанидан ўқув дастури, Тошкент, 2009.
16. Xalmatova B.T., Fayzieva O'.R., Satiboldieva N.R. Neonatologiyada hamshiralik ishi – дарслик, -Т, 2014